



## 4KICHIK YOSHDAGI BOLALAR XARAKTERINING SHAKLLANISHI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

**Oltiboyeva Sunbula  
Hosilbek qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika  
universiteti Filologiya fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti"  
yo'nalishi I-bosqich talabasi*

**Dildora Jo'raqulova**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti, filologiya  
bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda xarakter shakllanishining psixologik qonuniyatlari, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi biologik hamda ijtimoiy omillar, ta'lim-tarbiya tizimining o'rni keng yoritiladi. O'quv faoliyatining yetakchi ahamiyati, bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy rivojlanish, o'z-o'zini baholash mexanizmlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, mashhur psixologlarning nazariyalari bilan boyitilgan holda kichik maktab davrining shaxs kamolotidagi o'rni ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** kichik yosh, bola xarakteri, shaxs shakllanishi, psixologik rivojlanish, tarbiya, ijtimoiy muhit, motivatsiya.

**Abstract:** This scientific article broadly covers the psychological patterns of character formation in primary school children, as well as the biological and social factors influencing this process and the role of the educational system. The leading importance of learning activity, cognitive processes, emotional and volitional development, and mechanisms of self-assessment are analyzed on the basis of academic sources. In addition, the significance of the primary school period in personal development is revealed through the enrichment of well-known psychological theories.

**Keywords:** early childhood, child character, personality formation, psychological development, upbringing, social environment, motivation.

**Аннотация:** В данной научной статье широко освещаются психологические закономерности формирования характера у детей младшего школьного возраста, биологические и социальные факторы, влияющие на данный процесс, а также роль системы обучения и воспитания. На основе научных источников анализируются ведущая значимость учебной деятельности, познавательные процессы, эмоционально-волевое развитие и механизмы самооценки. Кроме того, раскрывается значение младшего школьного возраста в становлении личности с опорой на теории известных психологов.

**Ключевые слова:** младший возраст, характер ребёнка, формирование личности, психологическое развитие, воспитание, социальная среда, мотивация.

## Kirish

Jamiyat taraqqiyoti barkamol avlod tarbiyasiga bevosita bog'liq. Shaxsning kelajakdagi hayotiy pozitsiyasi, qadriyatlari, muomala madaniyati va dunyoqarashi aynan bolalik davrida shakllanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshi psixik rivojlanishning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda xarakter sifatleri, irodaviy barqarorlik, o'zini boshqarish hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati faol rivojlanadi.

Psixologlarning fikricha, bola bu davrda nafaqat bilim egallaydi, balki jamiyat a'zosi sifatida o'z o'rnini anglay boshlaydi. Shu sababli mazkur yosh bosqichini chuqur o'rganish pedagog va ota-onalar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

## Asosiy qism

Shaxsning kamol topishini ulg'ayishning boshlanishi deb hisoblash lozim. Biz maktabgacha tarbiya yoshidagi, maktab yoshidagi va maktab yoshidagi kichik bolalik davrida xarakterning barqaror xislatlari tarkib topadi, deb ayta olamiz, biroq xarakterning tarkib topishi uchun shart sharoit, uning negizlari bolaning aynan mana shu yosh davrida paydo bo'la boshlaydi. Bola hayotining maktabgacha davri shaxsning kamol topishdagi eng muhim bosqichidir. Bola maktabgacha xatti-harakatlarning o'zlashtirilgan odatlangan formallari bilan hayotga bo'lgan muayyan munosabati bilan o'zlashtirilgan axloq normalari bilan keladi. Maktabga kirish bola hayoti va faoliyatiga muhim o'zgarishlar kiritadi. O'quv faoliyati bolada xatti-harakatning ma'lum uyushgan formallarini o'stirib va uning faoliyati tevarak atrofdagi kishilar bilan bo'lgan munosabatiga kata o'zgarishlar kiritib bolaga nisbatan o'z talablarini qo'yadi. Bu yoshdagi bola o'zini ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi kollektivning asosi sifatida his qila boshlaydi. Bola unga uning faoliyatiga kattalar va ota-onalar tomonidan qilinadigan munosabatlarning o'zgarilganini tushunadi. Yangi faoliyat uning o'rtoqlari bilan bo'ladigan munosabatlarini uning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ham o'zgartiradi. Yangi yetakchi faoliyat o'qishning paydo bo'lishi munosabatida o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangi motivlar: burch, mas'uliyat, qiziqish motivlari paydo bo'ladi. Maktab o'quvchilarining o'quv ishlari prosessida kishilar bilan munosabatlarining murakkablashishi jarayonida o'qituvchi olib boradigan tarbiyaviy ishlar o'quvchilarda zarur sifatlarni taraqqiy ettirish imkonini yaratadi. Bunday sifatlarda bora-bora o'quvchi xarakterining asosi bo'lib qoladi. Tarbiya prosessida bola xarakterini tarkib topishi uning xarakteridagi salbiy xislatlarni o'zgartirib va tugatish hamda ijobiy xislatlarni singdirishga harakat qiladi.

Shaxsning kelajakdagi ijtimoiy mavqei, hayotga munosabati va xulq-atvor modeli ko'p jihatdan bolalik davrida shakllanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshi inson hayotida mas'uliyat, burch va ijtimoiy talablarni anglash boshlanadigan muhim bosqichdir. Bola endi nafaqat oila a'zosi, balki jamiyatning muayyan vazifalarni bajaruvchi subyekti – o'quvchi sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiyada ushbu davr sezgir (senzitiv) davr sifatida e'tirof etilib, aynan shu paytda to'g'ri tashkil etilgan ta'lim va tarbiya shaxs rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarda xarakter shakllanishining mexanizmlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Kichik maktab yoshining umumiy psixologik tavsifi Bu davr odatda 6–7 yoshdan 10–11 yoshgacha davom etadi. Bola maktabga kirishi bilan uning kundalik turmushi, muloqot doirasi, faoliyat mazmuni tubdan

o'zgaradi. O'yin asta-sekin ikkinchi planga o'tadi va o'qish yetakchi faoliyatga aylanadi. L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, ta'lim bolaning rivojlanishiga ergashmaydi, balki uni oldinga yetaklaydi. Demak, o'quv jarayoni psixik funksiyalarni yangi bosqichga ko'taradi va endi kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgach bola o'z atrofidaqilar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o'quv faoliyati talablari bo'ysinish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishga o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o'rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bola maktabga qadam qo'yishi bilanoq unga bo'lgan munosabat va talablar orqali o'ziga xos bo'lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish oila, maktab ta'lim tizimiga ulkan mas'uliyat hissini yuklaydi.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudot, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojeali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va baho berish uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Xarakter shakllanishining psixologik asoslari haqida aytib o'tadigan b'olsak, xarakter shaxsning atrof-muhitga, mehnatga va insonlarga munosabatida namoyon bo'ladigan barqaror xususiyatlar tizimidir. Kichik yoshda bu sifatlar shakllanish jarayonida bo'lib, har bir kundalik tajriba ularning rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, shaxs aynan faoliyat jarayonida rivojlanadi. O'yin, o'qish va muloqot bola xarakterining tarkib topish maydoniga aylanadi. S.L. Rubinshteyn esa tashqi ta'sirlar bola tomonidan faol o'zlashtirilishini, u tarbiyaning oddiy obyekti emasligini ta'kidlaydi.

Taqlid va ijtimoiy o'rganishda kichik yoshdagi bolalar uchun kattalar namunasi muhim mezon hisoblanadi. A. Bandura bolalar kuzatish va taqlid qilish orqali xulq-

atvorni o'zlashtirishini ilmiy asoslab bergan. Rag'batlantirilgan harakat tezroq mustahkamlanadi. Shu bois pedagog va ota-onalarning shaxsiy madaniyati, nutqi va munosabati tarbiya samaradorligini belgilaydi

Ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli. Oila bola uchun dastlabki ijtimoiy maktabdir. Bu yerda u mehr, hurmat, talabchanlik va mas'uliyatni o'rganadi. Maktab va tengdoshlar jamoasi esa muloqot madaniyatini boyitadi, hamkorlikni rivojlantiradi. Qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lgan muhit o'ziga ishonchni oshiradi. Haddan tashqari qattiqqo'llik yoki beparvolik esa salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Demak, tarbiya jarayonida muvozanat muhimdir.

L.I. Bojovich bolalik davrida emotsional va motivatsion omillar yetakchi ekanini qayd etadi. Bola maqtovdan ilhomlanadi, e'tiborsizlikdan esa tushkunlikka tushishi mumkin. Ijobiy ruhiy fon bilim olishga qiziqishni oshiradi va xarakterda qat'iyatni mustahkamlaydi.

Bolada irodaviy sifatlarning rivojlanishida D.B. Elkonin o'qish faoliyati ixtiyoriylikni rivojlantirishini ko'rsatadi. Bola vazifani bajarish, qiyinchiliklarni yengish jarayonida sabr-toqat va mustaqillikni o'zlashtiradi. Bu esa kelajakdagi mas'uliyatli shaxs kamoloti uchun zamin yaratadi.

O'z-o'zini anglash yosh bolalarda R. Berns nazariyasiga ko'ra, o'zini baholash shaxsning ichki barqarorligini belgilaydi. Kichik yoshdagi bola yutuq va kamchiliklarini his eta boshlaydi. Kattalarning to'g'ri yordami natijasida unda adekvat "Men" obrazi shakllanadi.

Motivatsiya va qadriyatlarda bolaning bilim olishga, mehnatga, jamoadagi o'rniga bo'lgan munosabati yuzaga keladi. Qiziqarli topshiriqlar, muvaffaqiyatni his qilish ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

**Psixolog olimlar qarashlari.** Freud bolalikdagi tajribalar shaxsiyat poydevori ekanini aytadi. Piaget tafakkur rivoji bosqichma-bosqich kechishini ko'rsatadi. Vigotskiy esa ijtimoiy hamkorlik va yaqin rivojlanish zonasini asosiy omil sifatida belgilaydi. Erikson nazariyasida esa ishonch hissi kelgusidagi psixologik farovonlik uchun muhim shart hisoblanadi.

Kichik yosh davri xarakter shakllanishida hal qiluvchi bosqichdir. Aynan shu davrda bola ijtimoiy munosabatlar tizimiga faol kirib boradi, o'zining jamoadagi o'rnini anglay boshlaydi, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlarni ichki ehtiyojiga aylantiradi. O'qish faoliyatining yetakchi mavqega chiqishi natijasida unda mas'uliyat, burch hissi, intizomlilik, tirishqoqlik kabi sifatlarni shakllanadi. Bola o'z harakatlarini nazorat qilish, natijani oldindan ko'ra bilish, xatti-harakatlariga baho berish malakasini egallaydi. Bu esa xarakterning barqaror, ongli va ijtimoiy ahamiyatli jihatlari tarkib topishiga xizmat qiladi.

Mazkur bosqichda kattalar, ayniqsa o'qituvchi va ota-onalarning shaxsiy namunalari nihoyatda katta kuchga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi ko'proq taqlid qilish orqali o'rganadi, u uchun kattalarning so'zi, munosabati va talabi mezon vazifasini bajaradi. Agar tarbiya jarayoni izchil, maqsadga yo'naltirilgan va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilsa, ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlanib boradi, salbiy ko'rinishlar esa asta-sekin bartaraf etiladi. Aks holda beparvolik, nazoratsizlik yoki talablarning nomuvofiqligi xarakterning nojo'ya yo'nalishida shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, jamoa muhiti ham xarakter kamolotining muhim omillaridan biridir. Tengdoshlar bilan hamkorlik qilish, umumiy maqsad sari intilish, o‘zaro yordam va javobgarlik hissini his etish orqali bola ijtimoiy tajriba to‘playdi. Jamoada egallangan ijobiy tajriba uning kelajakdagi hayotiy pozitsiyasini belgilaydi, o‘z kuchiga ishonchni oshiradi hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

**Xulosa qilib aytganda**, kichik maktab yoshi shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, dunyoqarashi va xulq-atvor asoslari barpo etiladigan poydevor davridir. Bu davrda berilgan to‘g‘ri tarbiya keyingi bosqichlarda rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bois pedagoglar va ota-onalar bolaga qo‘yiladigan talablarning aniqligi, tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligi hamda mehr-muhit bilan uyg‘unligini ta’minlashlari zarur. Faqat shundagina jamiyatga foydali, mustaqil fikrlovchi, yuksak axloqiy fazilatlarga ega barkamol shaxsni voyaga yetkazish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vygotsky L.S. Mind in Society. – 1978.
2. Piaget J. The Psychology of the Child. – 1969.
3. Erikson E.H. Childhood and Society. – 1950.
4. Leontev A.N. Activity, Consciousness, Personality. – 1978.
5. Bojovich L.I. Personality and Its Formation in Childhood. – 1968.
6. G‘oziev E.G. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent, 2010.
7. “Umumiy psixologiya” Ivanov – 1967.